ISSN 2181-7839

# XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

# PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2021**

**2-son**
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

# MUNDARIJA

## TAHRIRIYAT


| | | |
|---|---|---|
| | 4 | Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir |


## TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI


| | | |
|---|---|---|
| Sh. Mardonov, O. Jabborova | 6 | Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari |
| A. Abdullayev | 9 | Boshlang'ich ta'limda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi |
| D. Maxmudova | 12 | Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar |
| M. Musurmonova | 16 | Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati |
| R. Musurmanov, M. Musurmonova | 20 | Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida |
| F. Ochilov | 23 | Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati |
| B. Axmadaliyev | 27 | Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati |
| G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova | 31 | Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli |
| U. Shermatova | 35 | Millat ruhini saqlash yo'lida |
| F. Atabekov | 39 | Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'rni |
| O. Jabborova | 43 | Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning pedagogik muammolari |
| M. Achilova | 46 | Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli |
| D. Po'latova | 50 | Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari |
| Z. Umarova | 54 | Ta'lim muassasalaridagi nizolarni hal qilish |


## TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI


| | | |
|---|---|---|
| M. Abdullayeva | 57 | Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi |
| G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov | 61 | Uchinchi tartibli tenglamalar |
| X. Gulyamova | 65 | Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi |
| R. Nosirova | 69 | Maktabgacha ta'limda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash |


## ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI


| | | |
|---|---|---|
| D. Mutalova | 73 | Ta'lim klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida |
| L. Boliyeva | 76 | Oliy ta'limda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari |

X. Gulyamova, U. Shermatova 79 Ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarni xalqaro "pirls" nazoratiga tayyorlash

A. Karimjonov, O. Jabborova 83 Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida "tarbiya" fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi

Z. Shanasirova 86 Bolalarni maktabga tayyorlashda multimedia vositalaridan foydalanish afzalliklari

## MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

R. Nosirova, N. Rustambekova 89 O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga joriy etish texnologiyalari

## JISMONIY TARBIYA VA SPORT

E. Soatov 93 Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda ularning psixologik holatini o'rganish

F. Abdullayev, B. Abdullayeva 97 Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida jismoniy mashqlarning o'rni

A. Jo'raboyev 101 Jismoniy tarbiya va sportning bola tafakkuriga ta'siri

E. Hurramov 104 Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga umumiy tasnif

## MAKTABGACHA TA'LIM

N. Maripova 107 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga noan'anaviy applikatsiya yasash usullarini o'rgatish

A. Sanakulova 111 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim takliflar

Z. Teshabayeva 114 Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish o'yin faoliyati shakllarini tashkil etish

L. Narimbayeva 117 Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida teatrning roli

N. Urinova, A. Abdullayev 121 Ilk yoshdagi bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati

Z. Nasirova 124 Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda tilning fonetik, leksik va grammatik aspektlari

S. Xolmatova 128 Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tafakkurini shakllantirish omillari

## ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Z. Narimbetova 131 Matematika darslarida o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni

## ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Ш. Мардонов, У. Закирова 134 Об основных понятиях педагогических ценностей

Ю. Кушназарова 138 Теоретические исследования в математике

## ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ

Р. Гимазутдинов 141 Знания по физической культуре – основа физкультурного образования дошкольников

**Aziza SANAKULOVA,**
Chirchiq davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

# MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO‘YICHA AYRIM TAKLIFLAR

**Annotatsiya**

Muallif tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchi shaxsini rivojlantirish yo‘lida maktabgacha boshqarish tizimini takomillashtirish, zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonlarining shakllarini joriy etish, maktabgacha ta’lim tizimi xodimlarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning dolzarb masalalari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar.** Ta’lim-tarbiya, jarayonlar, pedagogika, tizim, rivojlanish, yondashuv, takomillashtirish, faolligi, tarbiyalanuvchi.

Автором раскрыты актуальные вопросы совершенствования системы управления дошкольным учреждением на пути развития личности воспитанника дошкольных образовательных организаций, внедрения современных форм учебно-воспитательного процесса, развития знаний и умений работников системы дошкольного образования по современным управленческим и педагогическим технологиям.

**Ключевые слова.** Образование-воспитание, процессы, педагогика, система, развитие, подход, совершенствование, активность, воспитание.

The author describes the issues of improvement of Preschool management system, introduction of forms of modern educational processes, development of knowledge and skills of modern management and pedagogical technologies in preschool education system employees in the development of personality of preschool education organizations.

**Key words.** Education-training, processes, pedagogical, system, development, approach, improvement, activity, upbringing.

Maktabgacha ta’lim – maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, odob-axloq jihatdan, estetik va jismoniy rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish va umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga yo‘natirilgan uzluksiz ta’lim turi hisoblanib, maktabgacha ta’lim tizimida o‘quv jarayonini yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish hamda sog‘lom va har tomonlama yetuk ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi muhim vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta’lim sohasida me’yoriy-huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologi-

yalarni maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion-pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan konseptual islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bolalarning ijtimoiy hayotga moslashish imkoniyatlarini kengaytirish asosida ularni har tomonlama rivojlantirish masalalari dolzarbligi bilan turli soha vakillarini qiziqtirib kelmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT)da pedagogik jarayonlarni takomillashtirish, qo‘yilgan maqsadlarga erishish va samaradorlikni ta’minlashda tarbiyalanuvchilar faolligini ta’minlash, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat etish va obyektiv baholash asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish va uning natijaviyligini ta’minlash yo‘nalishidagi tarbiyachi faoliyatining mazmun-mohiyati, maqsadli motivlashtirish, rejalashtirish, tashkiliy-ijrochilik, tartibga solish-muvofiqlashtirishni amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi.

Pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirishda shaxs-faoliyat yondashuvi zarur hisoblanib, ko‘zlangan maqsadga erishishda tarbiyalanuvchilar faolligini ta’minlash bilan bir qatorda vaqt, mehnat, qo‘shimcha metodik mahsulotlar va vositalarning me’yordan ortmasligini ta’minlovchi, tarbiyalanuvchilarning imkoniyati, qobiliyati va boshlang‘ich tushunchalariga hamda mavjud vaziyatlar va shart-sharoitlarga mos keluvchi, eng qulay, pedagogik jarayon va uning tarkibiy tuzilishini qayta tashkil eta oladigan tizimni vujudga keltirish muvofiqlashtirilgan yondashuvni joriy etish nazarda tutiladi.

MTTlarida pedagogik jarayonlarni tizimli yondashuv asosida takomillashtirish jarayonida kelajak maktabgacha ta’lim tashkiloti yagona muhitiga, ota-onalarni jalb etishga, ularning faol munosabatlarini aniqlash va shakllantirish uchun qulay psixologik-pedagogik muhitni tashkil etish lozim. Bunda:

• ko‘p funsional predmetli-rivojlantiruvchi muhitni yaratish, uni loyihalashga va o‘zgartirishga ota-onalarni jalb qilish, bolalarga faoliyatni erkin tanlash;

• ota-onalar, pedagoglar va bolalar, turli yosh guruhlari tarbiyalanuvchilarining bir-birlari bilan o‘zaro munosabati tarbiyaviy-ta’limiy va ijtimoiy-madaniy muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

MTTning ochiq o‘zini o‘zi tashkil etuvchi tizim sifatida faoliyat yuritishini ta’minlashda:

• ota-onalarni faollashtirish va pedagogik refleksiyani shakllantirish;

• ota-onalarni bolalarning tarbiyaviy-ta’limiy jarayonini rejalashtirish, kun tartibi va mashg‘ulotlarni o‘tkazishga oid masalalarni tashkil etishga jalb etish, bolalar bilan muloqot jarayonida loyihalash metodidan foydalanishga o‘rgatish;

• pedagoglar va ota-onalar ijodiy jamoasini yaratish, qiziqishlar bo‘yicha uyushmalarni shakllantirish va oilaviy klubni ochish kabi vositalarini qo‘llash ahamiyatlidir.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari, “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanishning asosiy sohalarida MTTdagi pedagogik jarayonlarga tizimli yondashuvni takomillashtirish talab etilmoqda.

MTTdagi pedagogik jarayonlarga tizimli yondashuv, o‘yinlar, sayohatlar, muammoli vaziyatlarni yaratish, loyihalash, psixologik yordam ko‘rsatish, treninglar tashkil etish metodlaridan foydalanish samarali natijalarini ko‘rsatadi.

Pedagogik jarayonlarda quyidagi vositalardan foydalanish takomillashgan pedagogik jarayonini tashkil etadi.

• matnli vositalar, o‘quv dasturlari, maxsus adabiyot, tapqatma materiallar;
• tasvirli vositalar: fotosuratlar, ko‘rgazmali rasmlar, chizmalar, jadvallar;
• audio va video vositalar: ertaklar, ovozli ertaklar, multfilmlar;
• yordamchi jihoz vositalar turli doskalar, video proektorlar, kompyuter va h.k.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, MTTda pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda tarbiyalanuvchilarning faolligini ta’minlash, ularni mustaqil va erkin fikrlashga o‘rgatish hamda erkin va mustaqil muloqotga kirishishlari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishning ahamiyati ta’lim-tarbiya jarayonlarining samaradorligini ta’minlashda o‘z ifodasini topadi.

MTTda pedagogik jarayonlarni takomillashtirish tarbiyalanuvchilar dunyoqarashining o‘zgarishi, tafakkurining rivojlanishi, ularda shaxsiy sifatlarning shakllanishi va rivojlanishida o‘z ahamiyatini ko‘rsatadi.

MTTda turli shakllardagi ta’lim-tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini muvofiqlashtirishdan ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lida olingan natijalar umumiy holda murakkab pedagogik tizim hisoblanadigan barcha ta’lim-tarbiya jarayonlarining yaxlit tarzdagi samaradorligini ifodalaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

*1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. PF-4947-son.2017-yil 7-fevraldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.*

*2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. – T., 2018-yil.*

*3. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. – T., 2018-yil.*

*4. Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, O‘quv qo‘llanma. –T.: Fan va texnologiyalar, 2014.*